

GLOBALLASHUV SHAROITIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI VA GENDER TENGLIK MUAMMOSI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-68-74>

Nigora Saydaliyeva

TDSHU, Sharq falsafasi va germeneytika
kafedrası dotsenti, f.f.n.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida jamiyatda kechayotgan qadriyatlar transformatsiyasi va uning gender tenglik masalasiga ta'siri tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonlari natijasida shakllanayotgan yangi ijtimoiy qarashlar milliy va an'anaviy qadriyatlar bilan o'zaro ta'sirga kirishib, jamiyatda muayyan ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, gender tenglik tushunchasining noto'g'ri talqin qilinishi milliy qadriyatlarga zid qarash sifatida qabul qilinib, ijtimoiy qarama-qarshiliklar va stereotiplarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Maqolada ushbu muammoning asosiy omillari aniqlanib, gender tenglikni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan yondashuvlar asoslab beriladi. Shuningdek, ta'lim tizimi, axborot makoni va ijtimoiy ong orqali gender tenglik g'oyalarini to'g'ri talqin qilishning ahamiyati yoritiladi. Globallashuv sharoitida gender tenglikni ta'minlash jarayonida muvozanatli va madaniy jihatdan mos yondashuvni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: globallashuv, qadriyatlar transformatsiyasi, milliy qadriyatlar, gender tenglik, ijtimoiy ong, madaniy muvozanat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется трансформация ценностей в обществе в условиях глобализации и ее влияние на вопрос гендерного равенства. Новые социальные взгляды, сформировавшиеся в результате глобализационных процессов, взаимодействуют с национальными и традиционными ценностями, создавая определенные социальные проблемы в обществе. В частности, неверное толкование концепции гендерного равенства воспринимается как взгляд, противоречащий национальным ценностям, что приводит к усилению социальных противоречий и стереотипов. В статье определены основные факторы этой проблемы и обоснованы подходы, направленные на гармонизацию гендерного равенства с национальными ценностями. Также подчеркивается важность правильной интерпретации идей гендерного равенства через систему образования, информационное пространство и общественное сознание. Показана необходимость формирования сбалансированного и культурно приемлемого подхода в процессе обеспечения гендерного равенства в условиях глобализации.

Ключевые слова: глобализация, трансформация ценностей, национальные ценности, гендерное равенство, общественное сознание, культурный баланс.

ABSTRACT

This article analyzes the transformation of values in society under globalization and its impact on the issue of gender equality. New social views formed as a result of globalization processes interact with national and traditional values, creating certain social problems in society. In particular, the misinterpretation of the concept of gender equality is perceived as a view that contradicts national values, which leads to the intensification of social contradictions and stereotypes. The article identifies the main factors of this problem and justifies approaches aimed at harmonizing gender equality with national values. It also highlights the importance of correctly interpreting the ideas of gender equality through the education system, information space and social consciousness. It shows the need to form a balanced and culturally appropriate approach in the process of ensuring gender equality under globalization.

Keywords: globalization, transformation of values, national values, gender equality, social consciousness, cultural balance

KIRISH

XXI asrda globallashuv jarayoni dunyo mamlakatlarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, transmilliy aloqalarning kengayishi hamda madaniyatlararo muloqotning kuchayishi jamiyatdagi an'anaviy qarashlar va qadriyatlar tizimining o'zgarishiga olib kelmoqda. Ushbu jarayon ayniqsa ijtimoiy institutlar, oilaviy munosabatlar, shaxsiy erkinlik va gender rollariga oid tasavvurlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Globallashuv ta'sirida shakllanayotgan yangi qadriyatlar tizimi gender tenglik masalasini dolzarb muammolardan biriga aylantirdi. Jamiyatda ayollar va erkaklarning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarini teng ta'minlash masalasi global miqyosda muhokama qilinmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvlar o'rtasidagi ziddiyatlar gender tenglikni ta'minlash jarayonini murakkablashtirmoqda.

Madaniy chegaralarning nisbiy ravishda yo'qolishiga va umumjahon qadriyatlarining shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Inson huquqlari, shaxs erkinligi, tenglik va adolat kabi tushunchalar global qadriyatlar sifatida keng tarqalmoqda. Bu holat milliy va an'anaviy qadriyatlar tizimiga yangi talablar qo'yadi hamda ularning qayta talqin qilinishiga olib keladi. Qadriyatlar transformatsiyasi jamiyat a'zolarining dunyoqarashi, ijtimoiy xulq-atvori va o'zaro munosabatlarida aks etadi. An'anaviy jamiyatlarda erkak va ayol rollari qat'iy belgilangan bo'lsa, globallashuv ta'sirida ushbu rollar qayta ko'rib chiqilmoqda. Natijada ayollarning ta'lim olish, mehnat qilish va jamiyat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlari kengaymoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Globallashuv sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi va gender tenglik masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy qarashlar jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning mohiyatini anglashga xizmat qiladi.

Globallashuv va qadriyatlar o'zgarishi masalasini tahlil qilgan olimlardan biri A.Giddens[4] bo'lib, u globallashuvni ijtimoiy institutlar va shaxsiy hayotga chuqur kirib boruvchi jarayon sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, globallashuv natijasida an'anaviy qadriyatlar qayta ko'rib chiqiladi va yangi ijtimoiy me'yorlar shakllanadi. Bu jarayon ayniqsa oila, gender rollari va shaxs erkinligi bilan bog'liq masalalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Gender tenglik tushunchasining nazariy asoslari J. Butler[5] tadqiqotlarida keng yoritilgan. U genderni biologik emas, balki ijtimoiy-madaniy konstruksiya sifatida talqin qiladi va jamiyatda shakllangan stereotiplar gender tengsizlikning asosiy omillaridan biri ekanini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv gender rollarining tarixiy va madaniy sharoitga bog'liqligini ko'rsatadi.

Gender tenglik va rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik masalasi M.Nussbaum[6] tadqiqotlarida markaziy o'rin egallaydi. Uning fikricha, jamiyatda ayollarning ta'lim, mehnat va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini ta'minlash inson salohiyatining

to'liq ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv gender tenglikni faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida ko'rishga imkon beradi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham gender tenglik va qadriyatlar transformatsiyasi masalalari keng yoritilgan. UNESCO[7] hisobotlarida globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlagan holda gender tenglikni ta'minlash zarurligi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuv gender tenglikni madaniy kontekstni hisobga olgan holda amalga oshirish muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, P.Sztompka[8] ijtimoiy o'zgarishlar nazariyasida qadriyatlar transformatsiyasini jamiyat rivojlanishining tabiiy bosqichi sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, qadriyatlar o'zgarishi ijtimoiy moslashuv va modernizatsiya jarayonining ajralmas qismidir. Bu fikr globallashuv sharoitida gender tenglik masalasining dolzarbligini yanada asoslaydi.

NATIJALAR

Respublikamizda globallashuv sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi va gender tenglikni ta'minlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar jamiyatda gender tenglikni mustahkamlash, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish hamda milliy qadriyatlarni saqlagan holda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida”[1]gi qarori gender tenglikni ta'minlashning muhim huquqiy asosi hisoblanadi. Ushbu hujjatda ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”[2]gi qarori gender siyosatini tizimli amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, unda gender tenglik masalasiga milliy qadriyatlar va ijtimoiy an'analarni inobatga olgan holda yondashish zarurligi ta'kidlangan. Mazkur qaror gender tenglikni ta'minlash jarayonida ijtimoiy ongni shakllantirish va stereotiplarni bartaraf etish muhimligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-martdagi “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”[3]gi farmoni ayollarning ta'lim, davlat boshqaruvi va jamoat hayotidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan. Ushbu hujjatda ayollarning salohiyatini ro'yobga chiqarish jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar globallashuv sharoitida gender tenglikni milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi. Davlat siyosatining ushbu yo'nalishi qadriyatlar transformatsiyasi jarayonining

boshqarilayotgan va ijtimoiy barqarorlikka yo‘naltirilgan shaklda amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi.

Gender tenglik — bu jamiyatda ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning yaratilishini anglatadi. Globallashuv jarayoni ushbu tushunchaning keng tarqalishiga va xalqaro darajada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va global institutlar tomonidan gender tenglikni ta‘minlash bo‘yicha qator dastur va strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Biroq gender tenglik masalasi barcha jamiyatlarda bir xil qabul qilinmaydi. Ayrim hududlarda u an‘anaviy qadriyatlarga zid tushuncha sifatida baholanadi. Shu sababli globallashuv sharoitida gender tenglikni joriy etish jarayoni ijtimoiy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat gender tenglik masalasiga madaniy va tarixiy xususiyatlarni inobatga olgan holda yondashishni talab etadi.

Globallashuv ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, qator muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Mehnat bozorida gender tengsizlik, ayollarning kam haq to‘lanadigan sohalarida bandligi, rahbarlik lavozimlarida yetarli darajada ishtirok etmasligi hanuzgacha dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda shakllanayotgan stereotiplar gender tenglikni ta‘minlashga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Globallashgan axborot makonida ayol obrazining noto‘g‘ri talqin qilinishi jamiyatda genderga oid noto‘g‘ri tasavvurlarni kuchaytiradi.

Gender tenglikni ta‘minlash jarayonida milliy qadriyatlarni inkor etmaslik muhim ahamiyatga ega. Aksincha, gender tenglik g‘oyalarini milliy madaniyat va an‘analar bilan uyg‘unlashtirish orqali jamiyatda barqaror ijtimoiy rivojlanishga erishish mumkin. Milliy qadriyatlar doirasida ayolning o‘rni va mavqeini mustahkamlash, uning jamiyatdagi faol ishtirokini rag‘batlantirish gender tenglikni ta‘minlashning muhim omili hisoblanadi. Bu jarayon bosqichma-bosqich, ijtimoiy ong va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

O‘zbek qadriyatlari asrlar davomida shakllangan bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy hayoti, axloqiy me‘yorlari va madaniy munosabatlarida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu qadriyatlar avloddan avlodga o‘tib, jamiyatda barqarorlik, birdamlik va o‘zaro hurmatni ta‘minlab kelmoqda. O‘zbek jamiyatida oila muqaddasligi eng asosiy qadriyat sifatida e‘tirof etiladi. Oila nafaqat biologik birlik, balki shaxs tarbiyasi, ma‘naviy kamolot va ijtimoiylashuvning asosiy muhitidir. Oilada kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik, ota-onaga sadoqat va qarindoshlik rishtalarini asrash kabi tamoyillar ustuvor hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar shaxsning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi hamda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning sog‘lom rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kattalarga hurmat va ularning tajribasiga tayanish o‘zbek madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Jamiyatda qarorlar ko‘pincha individual emas, balki oila yoki jamoa maslahatiga tayangan holda qabul qilinadi. Bu holat mas‘uliyatni bo‘lishish, oqibatni oldindan ko‘ra bilish va jamoaviy fikrni qadrlash kabi fazilatlarni mustahkamlaydi. Keksalarning hayotiy tajribasi va donoligi jamiyatda ma‘naviy mezon sifatida qabul qilinib, yosh avlod uchun tarbiyaviy ahamiyat kasb

etadi. Shu bilan birga, maslahatlashuv madaniyati ijtimoiy totuvlikni saqlash, mojarolarning oldini olish va kelishuvga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mehr-oqibat, qo‘ni-qo‘shnichilik va o‘zaro yordam tamoyillari ham o‘zbek qadriyatlarining muhim jihatlaridan biridir. Jamiyat a‘zolari o‘rtasida bir-biriga befarq bo‘lmaslik, muhtojlarga yordam qo‘lini cho‘zish va hamjihatlikda yashash qadrlanadi. Bunday munosabatlar ijtimoiy birdamlikni kuchaytirib, jamiyatda ishonch va barqarorlik muhitini yaratadi. Shuningdek, hayo, andisha va odob-axloq me‘yorlari insoniy munosabatlarda muhim o‘rin tutib, shaxsning jamiyatdagi o‘zini tutishi va muloqot madaniyatini belgilaydi.

O‘zbek qadriyatlarida mehnatsevarlik, sabr-toqat va halollik ham yuksak baholanadi. Halol mehnat bilan yashash, qiyinchiliklarga bardosh berish va mas’uliyatli bo‘lish jamiyat tomonidan rag‘batlantiriladi. Bu fazilatlar nafaqat iqtisodiy faoliyatda, balki kundalik hayotda ham shaxsning ijtimoiy obro‘cini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘zbek qadriyatlari zamon bilan hamnafas bo‘lib, yangi ijtimoiy sharoitlarda qayta talqin etilmoqda. Ularni mutlaq va o‘zgarmas me‘yor sifatida emas, balki inson qadrini asrash va jamiyat farovonligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi axloqiy tizim sifatida tushunish muhimdir.

MUHOKAMA

Globalashuv sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolardan biri milliy qadriyatlar bilan gender tenglik g‘oyalari o‘rtasida muvozanatning buzilishidir. Axborot texnologiyalari va global madaniyat ta’siri ostida jamiyatga kirib kelayotgan yangi qarashlar ko‘pincha mahalliy qadriyatlar bilan to‘qnash keladi. Natijada gender tenglik masalasi ayrim hollarda an’anaviy qadriyatlarga zid tushuncha sifatida qabul qilinib, ijtimoiy qarama-qarshiliklar va noto‘g‘ri talqinlarga sabab bo‘lmoqda. Bu holat jamiyatda gender masalasiga nisbatan keskin qarashlarning shakllanishiga, stereotiplarning mustahkamlanishiga va ayollar hamda erkaklarning ijtimoiy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Muammoning yana bir jihati shundaki, gender tenglik tushunchasi ko‘pincha noto‘g‘ri talqin etilib, milliy qadriyatlarni inkor etish yoki an’anaviy oila modelini zaiflashtirish bilan tenglashtiriladi. Bu esa jamiyatda ishonchsizlik va qarshilikni kuchaytiradi. Aslida esa gender tenglik biologik yoki madaniy farqlarni yo‘q qilish emas, balki ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratishni anglatadi. Ushbu mazmun to‘g‘ri tushuntirilmagani sababli gender tenglikka nisbatan salbiy munosabat shakllanmoqda.

Mazkur muammoni hal etish uchun, avvalo, gender tenglik tushunchasini milliy qadriyatlar bilan uyg‘un holda talqin qilish zarur. Ta’lim tizimida gender tenglik masalalarini yoritishda uni o‘zbek qadriyatlaridagi adolat, mehr-oqibat va inson qadrini ulug‘lash tamoyillari bilan bog‘lab tushuntirish muhimdir. Bu yondashuv gender tenglikni tashqi g‘oya sifatida emas, balki milliy madaniyatga mos ijtimoiy ehtiyoj sifatida qabul qilinishiga yordam beradi.

Ikkinchi muhim yechim yo‘li — axborot makonida gender masalasini mas’uliyat bilan yoritishdir. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ayol va erkak obrazlarini stereotiplarsiz, ijtimoiy mas’uliyat va hurmat asosida aks ettirish zarur. Bu jamiyatda sog‘lom gender munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiladi va noto‘g‘ri tasavvurlarni kamaytiradi.

Shuningdek, ayollarning ta’lim olish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish muammoni hal etishning muhim omillaridan biridir. Ta’lim orqali ayollarning ijtimoiy faolligi oshadi, bu esa jamiyatning umumiy intellektual va iqtisodiy salohiyatini mustahkamlaydi. Bunda ayolning oila va jamiyatdagi rolini qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida ko‘rish muhimdir.

XULOSA

Globallashuv sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi jamiyat hayotining ajralmas jarayoni bo‘lib, u gender tenglik masalasining dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Globallashuv natijasida shakllanayotgan yangi ijtimoiy qarashlar an’anaviy va milliy qadriyatlar bilan o‘zaro ta’sirga kirishib, jamiyatda muayyan ijtimoiy ziddiyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu ziddiyatlar asosan gender tenglik tushunchasining noto‘g‘ri talqin qilinishi va uni milliy qadriyatlarga zid g‘oya sifatida qabul qilinishi bilan bog‘liq ekanligi aniqlanadi. Gender tenglikni milliy qadriyatlarga qarama-qarshi tushuncha sifatida emas, balki ularning insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslangan mantiqiy davomi sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy muloqot muhitida gender tenglik masalasini madaniy va tarixiy kontekstni hisobga olgan holda yoritish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv jamiyatda sog‘lom ijtimoiy ongni shakllantirish, stereotiplarni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Globallashuv sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi va gender tenglik masalalarini muvozanatli yondashuv asosida hal etish jamiyatning barqaror rivojlanishi, inson qadrining yuksalishi va ijtimoiy adolatni qaror toptirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu sababli ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar va amaliy yondashuvlar milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy ijtimoiy talablarni qondirishga xizmat qilishi lozim.

Tavsiyalar: Hozirgi davrda ijtimoiy rivojlanishning muhim xususiyatlaridan biri qadriyatlar tizimining transformatsiyasi bilan bog‘liqdir. Shuni ta’kidlash lozimki, globallashuv jarayoni milliy va an’anaviy qadriyatlar tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda.

Birinchidan, globallashuv sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi va gender tenglik masalalarini to‘g‘ri talqin qilish uchun ta’lim tizimida mazkur mavzularga oid fanlar va mavzularni kuchaytirish tavsiya etiladi. Ayniqsa, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida gender tenglik masalalarini milliy qadriyatlar bilan uyg‘un holda tushuntiruvchi o‘quv modullarini joriy etish ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda gender tenglikka oid materiallarni tayyorlashda madaniy va axloqiy mas’uliyatni

kuchaytirish zarur. Ayol va erkak obrazlarini stereotiplarsiz, inson qadrini ulug‘lovchi va milliy qadriyatlarga mos tarzda yoritish jamiyatda sog‘lom gender munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ayollarning ta‘lim olish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga qaratilgan davlat va nodavlat dasturlarini qo‘llab-quvvatlash tavsiya etiladi. Bu jarayonda ayolning oila va jamiyatdagi rolini qarama-qarshi qo‘ymasdan, balki ularni bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida ko‘rish muhimdir.

To‘rtinchidan, globallashuv sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi va gender tenglik muammolarini chuqur o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, milliy madaniyat va an‘analar asosida gender tenglik masalasini tahlil qiluvchi fanlararo tadqiqotlar jamiyat uchun amaliy ahamiyatga ega ilmiy xulosalar ishlab chiqishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida. Qaror, 2019-yil 7-mart.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Jamiyatda gender tenglikni ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida. Qaror, 2020-yil 18-fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Farmon, 2021-yil 1-mart.
4. Giddens A. Runaway World: How Globalization Is Reshaping Our Lives. – London: Profile Books, 1999.
5. Butler J. Undoing Gender. – New York: Routledge, 2004.
6. Nussbaum M.C. Creating Capabilities: The Human Development Approach. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2011.
7. Sztompka P. Sociology of Social Change. – Oxford: Blackwell Publishing, 2005.
8. UNESCO. Innovating Education and Educating for Innovation. – Paris: UNESCO Publishing, 2016.
9. UNESCO. Gender Equality and Education: Looking Beyond Parity. – Paris: UNESCO, 2014.
10. OECD. Gender Equality in Education, Employment and Entrepreneurship. – Paris: OECD Publishing, 2017.
11. World Economic Forum. The Global Gender Gap Report. – Geneva: WEF, 2020.
12. Connell R. Gender and Power: Society, the Person and Sexual Politics. – Stanford: Stanford University Press, 1987.
13. Inglehart R., Norris P. Rising Tide: Gender Equality and Cultural Change Around the World. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.